



INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING MUQOBIL SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI

MEASURES TO DEVELOP ALTERNATIVE FORMS OF ATTRACTING INVESTMENTS

¹Narzullayeva Xilola
Abdukamilovna

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.
ORCID: 0009-0006-6832-8792, G-mail: xilolaabdukamilovna@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada investitsiyalarni jalb qilishning muqobil shakllari tadqiq qilingan. Xususan, investitsiyalarni jalb qilishning muqobil shakllari sifatida investitsiya platformalaridan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va sotib olish, venchur va pay fondlarini moliyalashtirish hamda kommandit shirkatlarga hissa kiritish yo'nalishlarida foydalanishning maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan. Investitsiyalarni jalb qilishning muqobil shakllari hisoblangan kraudfanding, venchur kapitali, farishta investorlar, mikrokreditlash va lizingning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida investitsiyalarni jalb qilishning muqobil shakllarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines alternative forms of investment attraction. Specifically, it substantiates the feasibility of using investment platforms as alternative forms of investment attraction in the areas of securities placement and acquisition, venture capital and mutual fund financing, and limited liability partnership contributions. The article highlights the specifics of crowdfunding, venture capital, business angels, microcredit, and leasing, which are considered alternative forms of attracting investment. Based on the research findings, proposals and recommendations for the development of alternative forms of investment attraction are developed.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *investitsiya, investitsiya muhiti, investitsiyaviy jozibadorlik, xorijiy investitsiyalar, muqobil investitsilar, investitsiya platformasi, qimmatli qog'ozlar, pay fondlari, kommandit shirkatlar, moliyalashtirish, biznes, tadbirkorlik, kraudfanding, venchur kapital, farishta investorlar, mikrokreditlash, lizing.*

❖ *investments, investment environment, investment attractiveness, foreign investments, alternative investments, investment platform, securities, mutual funds, limited liability partnerships, financing, business, entrepreneurship, crowdfunding, venture capital, business angels, microcredit, leasing.*

Kirish.

Bugungi kunda global moliya tizimida kuchayib borayotgan konyunkturaviy tebranishlar sharoitida har bir mamlakat o'z investitsiya muhitini yanada yaxshilash va

uning jozibadorligini oshirishga harakat qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (YUNKTAD) "siyosat noaniqligi global investitsiyaga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganidan ogohlantirdi va

rivojlanayotgan mamlakatlarda Barqaror rivojlanish maqsadlariga investitsiya keskin kamayishi xavfi ortayotganini ma'lum qildi" [1]. YUNKTAD e'lon qilgan maxsus hisobotda ta'kidlanishicha, global to'g'ridan-to'g'ri investitsiya o'tgan yil ham 11 foiz kamaygan edi. Demak, ikkinchi yil ketma-ket pasayish kuzatildi. Mazkur salbiy holat ishlab chiqarish kapital oqimi jadal sekinlashuvidan dalolat beradi.

Global to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kamayishi asosan rivojlangan mamlakatlarga sarmoya miqdori 22 foiz, jumladan Yevropada 58 foiz kamayish bilan bog'liq. "Rivojlanayotgan mamlakatlarda o'zgarish har xil namoyon bo'ladi. Afrikada xorijiy investitsiya Misrdagi yirik loyiha tufayli 75 foiz o'sdi. Shu loyihani hisobga olmaganda, o'sish 12 foizni tashkil etdi. Bunga investitsiyani osonlashtirish choralari va tartibga solish islohoti yordam berdi. Osiyo 3 foizlik manfiy ko'rsatkichga qaramay, xorijiy sarmoyani eng ko'p qabul qiluvchi mintaqa bo'lib qolmoqda. Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari sarmoyani 10 foiz oshirib, 225 milliard dollarga yetkazdi. Bu tarixda qayd etilgan ikkinchi yuqori ko'rsatkich. Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlarida 12 foiz pasayish kuzatilgan" [2]. Argentina, Braziliya va Meksikada esa yangi loyihalar ko'paygan. YUNKTAD ekspertlarining fikricha, "joriy investitsiya darajasi global ehtiyojdan ancha past. Barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirishdagi bo'shliqni yopish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarga har yili taxminan 4 trillion dollar kerak. Mutaxassislar fikricha, bu maqsadga erishib bo'lmaydigan darajada ko'p miqdor" [3]. Yuqoridagi holatlar investitsiya muhitining jozibadorligini yanada oshirish, investitsiyalarni jalb qilishning muqobil shakllarini rivojlantirishning zarurligini taqozo etadi va bu borada chuqur ilmiy-tadqiqotlarning olib borilishini, soha taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilishini talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Amerikalik iqtisodchi-olmildan Uilyam F.Sharp, Gordon Dj.Aleksander, Djeffri V.Beylining "Investitsiyalar" darsligida muqobil investitsiyalar tadqiq qilingan. "1980-yillarda institutsional investorlar o'z mablag'larining ma'lum bir qismini xalqaro aksiyalar va obligatsiyalarga investitsiya qila boshladilar. Ular, shuningdek, birgalikda muqobil investitsiyalar deb nomlanuvchi moliyaviy aktivlar guruhiga katta miqdorda investitsiyalar kiritdilar. Institutsional investorlar muqobil investitsiyalarni bozorda keng sotilmaydigan har qanday aktiv turi sifatida belgilaydilar. Institutsional investor portfeli uchun ularning nisbiy ahamiyatiga qarab, muqobil investitsiyalarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin" [4]:

– venchur kapitali (venture capital) yangi tashkil etilganlardan tortib rivojlangan va birlamchi ommaviy taklifga tayyorlanayotgan yosh kompaniyalarga qadar bo'lgan investitsiyalarni o'z ichiga oladi;

– xomashyo materiallarga investitsiyalar (resource investments), asosan neft yoki tabiiy gaz ishlab chiqaradigan yoki ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan mulkka egalik qilishni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda yog'ochga egalik qilish resurs investitsiyalari nuqtai nazaridan tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda;

– qarzdan foydalangan holda sotib olish (leveraged buy-outs) mavjud kompaniyalarni bitimni moliyalashtirish uchun katta miqdordagi qarz mablag'lari yordamida sotib olishni anglatadi. Keyinchalik bu kompaniyalar odatda qayta tuziladi: ba'zi bo'limlari qarzni qoplash uchun sotiladi, boshqalari esa samaradorlikni oshirish maqsadida birlashtiriladi va oxir-oqibat kompaniya aksiyalari bozorga chiqariladi;

– ko'chmas mulk (real estate) – bu daromad keltiradigan jismoniy inshootlarni anglatadi, jumladan chakana savdo markazlari, ofis binolari, turar-joy binolari va tijorat mulklari.

Har bir turdagi muqobil investitsiyaning xavf va daromad bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

O.Qarshiyevning ilmiy ishlarida investitsiyalarni jalb qilishning muqobil shakllari sifatida venchurli moliyalashtirish masalalari tadqiq qilingan. Olimning fikricha, "venchur kaptalini moliyalashtirishning an'anaviy moliyalashtirishdan asosiy farqli jihati investitsiyalar bilan bog'liq yuqori darajadagi tavakkalchilikdir. Venchur investorlari foiz to'lovlari haqida qayg'urmaydilar, chunki ular loyihaaning daromadlilikidan manfaatdor bo'lib, ular biznesning egalari hamdir. Banklar likvid garov evaziga kreditlar beradi, yuqori texnologiyali innovatsion kompaniyalar odatda bunday aktivlarni faqat yetuklik bosqichida sotib olishadi. Venchur investorlari jamoaga, g'oyaga va mahsulotga ko'proq qiziqishadi. Venchur moliyalashtirish kafolatlar bilan ta'minlanmaydi, chunki venchur investor kompaniyaning aktsiyadori yoki sherigiga aylanadi. Bank kompaniyani uning hozirgi holatiga qarab baholaydi, venchur investor esa kompaniyani uning kelajakdagi istiqbollari va rahbariyatining bu kelajakni amalga oshirish qobiliyatiga qarab baholaydi" [5]. Keltirilgan fikrlarda venchur kapitalining klassik moliyaviy mexanizmlardan farqlari aniq ifodalangan. Ilmiy nuqtayi nazardan, venchur moliyalashtirishning asosiy xususiyati katta tavakkalchilik va yuqori potentsial rentabellik o'rtasidagi almashinuvga asoslanadi. Bu "venture capital" nazariyasidagi fundamental tamoyil bo'lib, startaplar faoliyatining noaniqligi yuqori bo'lgan sharoitda ham investorlarni jalb etishga imkon beradi.

An'anaviy bank kreditlari past riskli loyihalarga yo'naltiriladi, chunki ular qaytarilish, foiz to'lovlari va garov bilan ta'minlanadi. Venchur kapital esa ko'pincha aktivlari hali shakllanmagan, bozori sinovdan o'tmagan yoki texnologiyasi yangi bo'lgan kompaniyalarga investitsiya qiladi. Shuning uchun bu turdagi moliyalashtirishda risk

ma'lum bosqichlar bo'yicha (seed, early-stage, growth) o'zgarib boradi va investorlarning narxlash strategiyasi ham kelajakdagi yuqori daromadga bog'liq bo'ladi.

Venchur investor bankdan farqli ravishda kredit beruvchi emas, balki kapital qo'yuvchidir. Ular o'z ulushi evaziga kompaniya qiymati oshganda daromad olishni maqsad qiladi. Ilmiy adabiyotlarda bu "equity financing"ning asosiy afzalligi sifatida qayd etiladi. Ya'ni risk yuqori bo'lsa ham daromad kompaniyaning qiymatidan kelib chiqadi (capital gain).

Venchur moliyalashtirish innovatsion kompaniyalar uchun mos bo'lishining sababi shundaki, ular ko'pincha moddiy aktivlarga ega bo'lmaydi. Kompaniyaning asosiy aktivlari – intellektual mulk, texnologiya, jamoa salohiyatidir. Bu bank kreditlash mexanizmlari uchun mos kelmaydi, ammo venchur investor aynan shu elementlarni baholaydi. Bu holat "soft assets valuation" yondashuvi bilan mos keladi. Venchur moliyalashtirishda "management quality" – jamoa salohiyati asosiy baholash mezonlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, startapning muvaffaqiyati ko'p hollarda g'oyadan ko'ra jamoaning ijro salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Shu sabab, venchur investorlari "kelajakdagi potentsial qiymat"ni baholaydi – bu bank tizimida yo'q tushuncha.

Venchur kapitalning korporativ tuzilishga ta'siri ham ahamiyatlidir. Investor ko'pincha kuzatuv kengashiga kiradi, strategiyani shakllantirishda ishtirok etadi, tarmoq orqali qo'shimcha qiymat qo'shadi. Bu venchur kapitalni oddiy moliyaviy resurs emas, balki strategik hamkorlik mexanizmiga aylantiradi.

Matndagi tahlil ilmiy jihatdan asosli bo'lib, venchur kapitalning kreditlashdan farqlarini to'g'ri yoritadi. Venchur moliyalashtirish tavakkalchilikka tayyorlik, innovatsion loyihalarni qo'llash, jamoa va kelajak salohiyatini baholash, garovsiz kapital qo'yish, ulush evaziga sheriklikka kirish kabi

xususiyatlarga ega. Bu esa uning iqtisodiyotda, ayniqsa innovatsion sektorni rivojlantirishda muhim moliyaviy vosita ekanligini ko'rsatadi.

Rossiya Federatsiyasining Moliya bozorini strategik rivojlantirish departamentining hisobot ma'lumotlariga ko'ra, "Muqobil investitsiya mexanizmlari – bu an'anaviy toifalarga kirmaydigan aktivlarga investitsiyalar (ommaviy savdoga qo'yilgan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa yuqori likvidli vositalar) va past likvidlik, yuqori xatarlar va yuqori talab qilinadigan daromadlar bilan tavsiflanadi" [6]. Ushbu ta'rif muqobil investitsiyalarning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi va iqtisodiy hamda moliyaviy adabiyotlarda qabul qilingan konsepsiyalar bilan uyg'un hisoblanadi.

An'anaviy aktivlar (aksiyalar, obligatsiyalar, depozitlar) yuqori likvidlikka ega bo'lib, ularning bozori shaffof, tartibga solinishi ancha mustahkam. Muqobil investitsiyalar esa: oldi-sotdisi qiyin, bozor ishtirokchilari kam, baholash mexanizmi murakkab, narxlar shaffofligi past bo'lgan aktivlardir. Ilmiy manbalarda bular "non-traditional asset classes" yoki "illiquid assets" sifatida tasniflanadi.

Muqobil investitsiyalarga xususiy kapital (private equity), ventchur kapital, xedj-fondlar, hosilaviy qimmatli qog'ozlar (derivatives), san'at asarlari, antikvariat, ko'chmas mulkning ayrim turlari, kriptofondlar kirishi mumkin. Ushbu aktivlarda investitsiyani tezda pulga aylantirish mushkul. Bu holat riskni oshiradi, lekin uzoq muddatli potensial daromadni ham oshiradi. Moliyaviy nazariyada bu "likvidlik mukofoti" (liquidity premium) deb ataladi.

Risk-daromad munosabati investitsiyalar nazariyasining asosiy tamoyillaridan biridir. Muqobil investitsiyalar odatda bozor tebranishlariga sezgir, tartibga solinishi past, ma'lumotlar yetishmaydigan, investorga katta ekspertiza va monitoring talab qiladigan aktivlardir. Shuning uchun investorlar yuqori risk evaziga qo'shimcha daromad talab qiladi.

Bu ilmiy adabiyotlarda "risk premium" orqali izohlanadi.

Muqobil investitsiyalar portfel nazariyasida korrelyatsiyasi past aktivlar sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni ular an'anaviy bozorlar bilan bir vaqtda harakatlanmaydi. Natijada umumiy portfel riskini kamaytiradi, barqarorlikni oshiradi va uzoq muddatda yuqori daromad olish imkonini yaratadi. Shu sababli institutsional investorlar (pensiya jamg'armalari, suveren fondlar, sug'urta kompaniyalari) aktivlarining sezilarli qismini aynan muqobil investitsiyalarga yo'naltiradi. Yuqoridagi ta'rif ilmiy jihatdan asosli bo'lib, muqobil investitsiyalarning quyidagi fundamental xususiyatlarini to'g'ri yoritadi: an'anaviy moliyaviy vositalar tarkibiga kirmasligi; past likvidlik va yuqori riskga ega bo'lishi; yuqori rentabellik kutilishi; portfel diversifikatsiyasiga ijobiy ta'siri. Shuningdek, muqobil investitsiyalar zamonaviy moliya tizimida innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, tavakkal daromad strategiyalarini shakllantirish va kapitalning samarali taqsimlanishida muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchliligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiyalarning muqobil shakllarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. An'anaviy moliyalashtirish manbalari yetarli emas, ya'ni bank kreditlari va davlat budjeti hisobidan loyihalarni moliyalashtirish cheklangan. Muqobil investitsiya vositalari (ventchur fondlar, kraudfanding, xususiy kapital, obligatsiyalar) orqali mablag'larning qo'shimcha manbalari yaratiladi. Muqobil investitsiya shakllari yangi sohalar – IT-axborot

texnologiyalari, "yashil" energetika, startaplar, kichik innovasion korxonalarni rivojlantirishga turtki beradi. Bu iqtisodiyotning bir yo'nalishga bog'lanib qolmasligini ta'minlaydi. Venchur investitsiyalar va biznes-farishtalar innovasion g'oyalarni tez moliyalashtirish imkonini beradi. Bu esa iqtisodiyotda raqobatbardosh mahsulotlar paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Muqobil mexanizmlar orqali xorijiy investorlar uchun qulay, shaffof sharoitlar yaratiladi. Bunda xalqaro fondlar, birjalar va investorlar uchun ochiq platformalar muhim o'rin tutadi. An'anaviy bank kreditlari startaplar uchun qimmat yoki qiyin bo'lishi mumkin. Muqobil investitsiyalar ularga mulkiy kafolatsiz, tezkor va moslashuvchan mablag'lar bilan ta'minlaydi.

Obligatsiyalar, kraudfanding, davlat-xususiy sherikligi kabi vositalar moliya bozorlarining faolligi va chuqurligini oshiradi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi. Muqobil investitsiya mexanizmlari shaffoflik, raqobat va investitsiyaviy erkinlikni kuchaytiradi. Bu mamlakat imidjini oshirib, yangi sarmoyadorlar kirib kelishini tezlashtiradi.

Investitsiyalarning muqobil shakllarini rivojlantirish – iqtisodiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish, yangi ish o'rinlari yaratish va xalqaro kapitalni keng jalb etish uchun juda muhim. Bugungi global bozor sharoitida bu masalaning dolzarbligi yanada ortib bormoqda.

Xalqaro amaliyotda aholidan investitsiya loyihalariga mablag'larni jalb qilish bo'yicha ommalashib borayotgan amaliyotni huquqiy jihatdan tartibga solish, fuqarolar huquq va manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek, investitsiya faoliyatini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirishning shaffof va ishonchli mexanizmlarini joriy qilish hamda

investitsiyalarni jalb qilishning muqobil shakllarini rivojlantirish investitsiya muhitining jozibadorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bir vaqtning o'zida investitsiyalar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va biznesning o'sishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ammo har bir loyiha uchun an'anaviy bank kreditlari yoki katta miqdordagi mablag'llarni olish imkoniyati mavjud bo'lmasligi mumkin. Shu sababli, investitsiyalarni jalb qilishning muqobil shakllari kundalik amaliyotda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda investitsiyalarni jalb qilishning asosiy muqobil shakllari sifatida qimmatli qog'ozlar chiqarish, kommandit shirkatlarga hissa kiritish, kraudfanding, venchur kapitali, farishta investorlar, mikro kreditlash va lizing, hamkorlik shartnomalari va sheriklik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1. Bugungi kunda biznes va davlat sektorlari loyihalarini moliyalashtirishning ko'plab usullari mavjud. Shular orasida qimmatli qog'ozlar chiqarish (aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va h.k.)¹ – investitsiyalarni jalb qilishning eng samarali va keng qo'llaniladigan usullaridan biri hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar, ya'ni moliyaviy vositalar orqali kompaniyalar yoki davlatlar investorlardan mablag' jalb qiladi.

Qimmatli qog'ozlar orqali investitsiyalarni jalb qilishning bir nechta afzalliklari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat: keng ommaga murojaat qilish – qimmatli qog'ozlar ommaviy chiqariladi, bu orqali kompaniya katta miqdordagi sarmoyani bir vaqtning o'zida jalb etishi mumkin; moliyalashtirishni turli shakllarda amalga oshirish – aksiyalar orqali mulkchilik berish yoki obligatsiyalar orqali qarz olish mumkin; investitsiyalarning aniqligi va shaffofligi – qimmatli qog'ozlar bozorida narxlar bozor

¹**Aksiyalar (Stocks)** – kompaniyaning mulkchilik ulushini ifoda etadigan qimmatli qog'ozlardir. Aksiya egasi kompaniya foydasiga teng huquqqa ega bo'ladi va umumiy yig'ilishlarda ovoz berish huquqiga ega. **Obligatsiyalar (Bonds)** – bu qarz majburiyatini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lib, ularni chiqaruvchi kompaniya yoki davlat investorga

belgilangan muddatda aniq foiz bilan qiymatini to'lashni va'da qiladi. Obligatsiyalar investor uchun kam riskli moliyaviy vosita hisoblanadi. **Veksellar (Bills)** – qisqa muddatli qarz hujjatlari bo'lib, asosan davlat yoki yirik korxonalar tomonidan chiqariladi.

qoidalariga ko'ra shakllanadi, bu investorlarga investitsiya qilishda aniqlik va ishonch beradi; qarz majburiyatlarini rejalashtirish imkoniyati – obligatsiyalar chiqarish orqali kompaniyalar o'z qarz majburiyatlarini aniq muddat va foizda rejalashtirishlari mumkin.


Qimmatli qog'ozlar chiqarish – investitsiyalarni jalb qilishning juda samarali va ko'p qirrali usulidir. Ushbu vosita orqali kompaniyalar o'z taraqqiyoti uchun zarur mablag'ni oladi, investorlar esa o'z mablag'larini qimmatli qog'ozlar shaklida sarmoya qilib, passiv daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlaydi va moliyalashtirishning samaradorligini oshiradi.

2. Investitsiyalar jalb qilishning muqobil shakllari sifatida kommandit shirkatlarga hissa kiritish ham muhim yo'nalish hisoblanadi. Ulushlarga (qo'shilgan hissalariga) yoki muassislarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo'lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo'lgan tijoratchi tashkilotlar xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi. Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari to'liq shirkat, kommandit shirkat, mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, aksiyadorlar jamiyati shaklida tuzilishi mumkin. "Kommandit" iborasi italyancha "commandare" so'zidan kelib chiqqan, u esa o'z navbatida lotincha deponere – "ishonib saqlashga topshirish, saqlash ma'nosini anglatadi va kommanditchilar hamda to'liq ishtirokchilarning o'rtasidagi munosabatlar" [7] mohiyatini ifodalaydi.

Shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining butun mol mulklari bilan javob beradigan ishtirokchilar (to'liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qatnashmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchi (hissa qo'shuvchi, kommanditchi) mavjud bo'lsa, bunday shirkat kommandit shirkat hisoblanadi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, "tarixiy jihatdan shirkatning ushbu turi savdogar (tadbirkor) tomonidan unga boshqa shaxslar tomonidan, ishonib topshirilgan kapitallar (mol-mulklar) kelishilgan maxsus maqsadlar bo'yicha dengiz savdosida bitimlar tuzish usuli sifatida vujudga kelgan, keyinchalik professional tijoratchi bo'lmagan shaxslar (eng avvalo dvoryanlar) tomonidan tadbirkorlik daromadlarini olish uchun foydalanilgan" [8].

Kommandit shirkat (kommandit jamiyati) – biznesni tashkil etishning maxsus huquqiy shakli bo'lib, unda ikki xil ishtirokchi bo'ladi: kommanditchilar va komplementarlar. Bu shirkat turi ayniqsa kichik va o'rta biznes uchun mo'ljallangan bo'lib, unda ishtirokchilarning mas'uliyati turlicha bo'ladi.

Kommandit shirkatga hissa kiritish – bu shirkat kapitaliga pul, mol-mulk yoki boshqa aktivlar shaklida investitsiya kiritish demakdir. Quyida uning asosiy jihatlari va xususiyatlari tasvirlangan:



1-rasm. Kommandit shirkatlarga hissa kiritishning asosiy jihatlari va xususiyatlari²

²Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

1. Hissa shakli. Naqd pul mablag'i – eng keng tarqalgan hissa turi. Kommanditchilar kompaniya kapitaliga belgilangan mablag'ni to'laydi. Mol-mulk yoki boshqa aktivlar – kompaniyaga avtomobil, uskuna, ko'chmas mulk yoki boshqa moddiy va nomoddiy aktivlar kiritilishi mumkin. Bunda ushbu aktivlarning qiymati baholanib, hissa miqdori shu bahoda belgilab beriladi.

2. Hissa kiritish bo'yicha shartnomalar. Hissa kiritishda shirkat ishtirokchilari o'rtasida shartnoma tuziladi. Unda hissa miqdori, kiritiladigan aktivlar turi, ularning bahosi va boshqa shartlar aniqlanadi. Bu shartnomalar notarial tasdiqlanishi mumkin.

3. Mas'uliyat va huquqlar. Kommanditchilar o'z hissasiga teng miqdordagi moliyaviy mas'uliyatni oladi. Ya'ni, agar shirkat qarzdor bo'lsa, ular faqat o'z hissasi miqdorigacha javobgar bo'ladi. Kommanditchilar kompaniya faoliyatida ishtirok etmasliklari yoki cheklangan boshqaruv huquqiga ega bo'lishlari mumkin.

4. Hissa kiritish jarayoni. Shirkatning ustaviga muvofiq, hissa kiritish shartlari belgilanadi. Kommanditchilar o'z hissalarini belgilangan muddatda kiritadilar. Hissa kiritish to'g'risidagi ma'lumotlar shirkatning rasmiy hujjatlarida qayd etiladi.

Kommandit shirkatlarga hissa kiritishning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: javobgarlikning cheklanganligi – kommanditchilar o'z hissasi miqdoridagina javobgarlikka ega, bu ularni moliyaviy riskdan himoya qiladi; qarorlarni tez va samarali qabul qilish – shirkat faoliyatini komplementarlar (hamkorlikda ishlab, mahsulotning bozordagi qiymati va talabini oshiradigan kompaniyalar) boshqargani sababli, boshqaruv mustahkam va samarali bo'ladi; sarmoya jalb qilish imkoniyati – turli shaxslardan sarmoya kiritilishi mumkin, bu biznesni rivojlantirishga yordam beradi; moliyaviy va huquqiy jihatdan aniqlik – shirkat ustavi va shartnomalarda ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yiladi.

Kommandit shirkatlarga hissa kiritish – kichik va o'rta biznes uchun qulay va kam riskli investitsiya usulidir. Ushbu tartibda sarmoya kirituvchi shaxslar faqat o'z hissasi miqdorida javobgarlikni olib, biznesning rivojlanishiga hissa qo'shadilar. Shu bilan birga, shirkatni boshqarish komplementarlarning qo'lida bo'lib, qarorlar tez va samarali qabul qilinadi. Kommandit shirkatlar o'zini sarmoyachilar uchun xavfsiz va istiqbolli biznes shakli sifatida namoyon etadi.

Xalqaro amaliyotda investitsiyalar jalb qilishning muqobil shakllari sifatida iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar biznes doiralarida e'tiborli o'rin egallagan "farishta investor"lar va venchur fondlari mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga xizmat qilib kelmoqda. Venchur fondlari, "farishta investorlar" kabi iboralar ko'pchilik uchun yangi tushunchalar bo'lgani bois ularning mohiyati, faoliyat yuritish tartibi ko'pchilikda qiziqish uyg'otdi. "Risk kapitali" ba'zi hollarda "pay kapitali" (equity sapital) deb nomlanadigan bunday turdagi investitsiya manbalari, atamalar mazmunidan ham ko'rinib turibdiki, ma'lum ulush evaziga tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan innovatsion loyihalarni, startaplarni moliyalashtirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Innovatsion biznesni qo'llab-quvvatlash funksiyasini bajaruvchi akseleratorlar tomonidan saralab olingan startaplar bir necha oylik tayyorlov dasturlarini o'taganlaridan so'ng o'z loyihalarini farishta investorlar oldida namoyish qiladilar. Ulardan muvaffaqiyat qozonish ehtimoli yuqori bo'lgan, "farishtalar" tomonidan munosib ko'rilganlariga firmaning ma'lum ulushi evaziga investitsiya kiritiladi. "Farishtalar" aksariyat hollarda tajribali mohir tadbirkorlar bo'lib, startaplar muvaffaqiyatidan manfaatdor ekanliklari sabab ham o'z fikr va maslahatlari bilan ko'mak beradilar.

1. Kraudfanding – bu bir nechta kichik sarmoyachilardan internet orqali mablag' yig'ish usulidir. Bu shakl, asosan, startaplar va kichik bizneslar uchun juda qulay.

Kraudfanding platformalari (kickstarter, indiegogo kabi) yordamida loyihalar o'z g'oyalarini keng auditoriyaga taqdim etib, mablag' topishi mumkin. Uning quyidagi afzalliklari mavjud: ko'p sonli kichik sarmoyachilardan mablag' jalb qilish imkoniyati; loyiha bozordagi talabini aniqlash; brend va mahsulotning tanilishi oshadi.

2. Venchur kapital (Venture capital). Venchur kapital sarmoyalari – yuqori rivojlanish salohiyatiga ega startaplar va yangi biznes loyihalari uchun mo'ljallangan sarmoyalardir. Venchur kapitalchilar, odatda, loyihaning aksiyalarini olgan holda investitsiya kiritadi. Uning afzalliklari: katta mablag'larni jalb qilish mumkin; vyenchur kapitalchilar tajriba va tarmoqlarini taqdim etadi; biznesning tezroq o'sishiga yordam beradi.

3. Farishta investorlar (Angel investors). Angel investorlar – bu shaxsiy mablag'lari bilan startaplarga yordam beruvchi boy va tajribali shaxslardir. Ular faqat moliyaviy yordam bilan cheklanmasdan, maslahat xizmatlarini ham ko'rsatadi. Uning afzalliklari: boshlang'ich bosqichdagi loyihalar uchun qulay; tajribali mutaxassislarning yordami; qarzga qaraganda kamroq riskli hisoblanadi.

4. Mikro kreditlash va lizing. Kichik biznes va ishlab chiqarish sohalari uchun mikro kreditlar va lizing xizmatlari qulaydir. Ular bank kreditlariga nisbatan yengilroq shartlarda beriladi va texnik jihatdan ham osonlashtirilgan. Bunda qarzni bosqichma-bosqich qaytarish imkoniyati, tyexnik jihatdan lizing vositasi sifatida vositachilik va moliyalashtirish shartlarining kichik biznes uchun qulayligi asosiy ustuvorligidir.

5. Hamkorlik shartnomalari va sheriklik. Investitsiyalarni jalb qilishda hamkorlik shartnomalari orqali sarmoyalar jalb qilish mumkin. Bu yerda investorlar biznesning foydasiga yoki aktivlariga teng huquqlarga ega bo'lishadi. Asosiy afzalliklari sifatida hamkorlikdagi risklarni kamaytirish, tadbirkorlik salohiyatini oshirish hamda

moliyaviy va boshqaruvda qo'shma faoliyatni qayd etish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Investitsiyalarni jalb qilishning muqobil shakllarini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, biznes faoliyatini rag'batlantirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. An'anaviy moliyalashtirish vositalari bilan bir qatorda kraudfanding, kraudinvesting, venchur kapitali, faktoring, lizing, sukuk kabi islomiy moliya vositalari, shuningdek, xususiy-davlat sherikligi orqali sarmoya jalb qilish iqtisodiy o'sish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Muqobil investitsiya mexanizmlarini joriy etish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash, raqamli platformalar faoliyatini rivojlantirish, xalqaro tajribani integratsiya qilish va investorlar uchun qulay biznes muhitini shakllantirish zarur. Shu bilan birga, moliyalashtirishning yangi turlarini ommalashtirish aholining investitsiya madaniyatini oshiradi, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kapital aylanmasi kengayadi va yangi ish o'rinlari yaratilishini tezlashtiradi. Muqobil investitsiya shakllarini rivojlantirish mamlakatning investitsion jozibadorligini kuchaytirib, barqaror iqtisodiy o'sish, texnologik yangilanish va milliy raqobatbardoshlikni ta'minlashda strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Investitsiyalarni jalb qilishda birgina an'anaviy bank kreditlari yoki katta sarmoyalardan foydalanishga qaraganda, muqobil shakllardan foydalanish samarali va ustuvordir. Kraudfanding, venchur kapital, farishta investorlar, mikro kreditlash va hamkorlik shartnomalari kabi usullar biznes va loyihalarining rivojlanishiga yangi imkoniyatlar ochadi. Har bir tadbirkor yoki loyiha uchun maqsad va imkoniyatlarga qarab to'g'ri usulni tanlash muhimdir.

Investitsiyalarni jalb qilishning muqobil shakllarini rivojlantirishda quyidagi taklif va tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- kraudfanding uchun alohida huquqiy mexanizmlar joriy etish va investor huquqlarini himoya qilishni yanada kuchaytirish kerak;

- venchur kapitali va biznes-farishtalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni soddalashtirish;

- milliy kraudfanding platformalarini yaratish va ularni birja tizimiga integratsiya qilish lozim;

- startup va kichik bizneslar uchun onlayn investitsiya marketplace'larini tashkil etish kerak;

- davlat ishtirokida venchur fondlarini shakllantirish va xususiy fondlar bilan sheriklik dasturlarini yo'lga qo'yish zarur;

- venchur sarmoya kiritgan investorlar uchun soliq imtiyozlari va grantlar joriy etish lozim;

- investitsiyalarni jalb qilishning muqobil shakllari sifatida investitsiya platformalaridan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va sotib olish, venchur va pay fondlarini moliyalashtirish hamda kommandit shirkatlarga hissa kiritish yo'nalishlarida foydalanish zarur.

Muqobil investitsiya mexanizmlarini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va xalqaro kapital oqimini kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu sohada tizimli islohotlar, raqamlashtirish va huquqiy kafolatlarni kuchaytirish eng samarali yo'nalishlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Global to'g'ridan-to'g'ri investitsiya ketma-ket ikkinchi yil pasaymoqda. UNCTAD – World Investment Report, 2025 ma'lumotlari.

2. Запуск Всемирного инвестиционного отчета 2025 / Торговля и развитие ООН (ЮНКТАД).

3. World Investment Report 2025. International investment in the digital economyii © 2025, United Nations. All rights reserved worldwide - [UNCTAD – World Investment Report, 2025, UNCTAD, Июнь 2025 – TrendWave.io](#)

4. Уильям Ф.Шарп, Гордон Дж.Александр, Джеффри В.Бейли. Инвестиции. – М.: ИНФРА-М, 2001. – С. 947-948.

5. Корнышев О.О. Альтернативные источники привлечения инвестиций в малый и средний бизнес: их преимущества и недостатки // Серия: Экономика и Право №7 июль 2019. – С. 61.

6. Развитие альтернативных механизмов инвестирования: прямые инвестиции и краудфандинг. Доклад для общественных консультаций. – М.: Центральный банк Российской Федерации, 2020. – С. 2. [Consultation_Paper_200811.pdf](#).

7. Шершеневич Г.Ф. Курс торгового права. Т.1. – СПб., – С. 365-366.

8. Берман Г.Д. Западная традиция права: Эпоха формирования. – М.: МГУ., 1994. – С. 332.